

DUAL TA'LIM YO'NALISHINING AFZALLIKLARI

Yusupova Sayyora Xasanovna

Shayxontohur tuman kasb-hunar maktabi

maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Dual ta'lim yo'nalishi, uning afzalliklari haqida fikrlar yuritilgan. Dual ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchilarning o'qish bilan bir vaqtda ish faoliyatini amalga oshirishi xususida fikrlar mavjud.

Kalit so'zlar: ta'lim, kasb-hunar, maktab, o'quvchi, o'qituvchi, DUAL yo'nalishi, pedagog, kadr, soha.

Mamlakatimizda yoshlarning bilim olishi, o'qishi va rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa qiz bolalarning o'qishiga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi qarori bilan Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Nizom asosida bugungi kunda Shayxontohur tuman kasb-hunar maktabida ushbu ta'lim tajribasi qo'llanilib kelinmoqda.

Xo'sh, aslida dual ta'lim qanday tizim? O'zbekistonda bu tizimni qo'llashdan ko'zlangan maqsad nima? U qanday natija beradi? An'anaviy ta'lim shaklida o'quvchi/talaba oliy yoki professional ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni ko'proq egallab, amaliyot qismini juda oz soatlarda korxona va tashkilotlarda o'taydi. Shuning uchun, rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimi o'rganilib, zamonaviy texnologiyalar va dastgohlarda o'qish bilan bir vaqtda korxona, tashkilotlarda ish faoliyatini olib borish imkoniyatini beruvchi dual ta'lim shakli O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritildi.

“Dual” so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, biror narsaning ikki qismga taalluqliligi, ikkita narsani ifodalovchi, ikki qismdan iborat, degan ma'nolarni bildiradi.

Dual ta'lim – o'quvchi/talabaga ta'limni o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir.

Bunda yoshlar 2-3 kun ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxona va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy ko'nikmalarni egallaydi. Dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchi/talaba korxona va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda ularga korxona tomonidan ustoz biriktiriladi va oylik maoshi to'lanadi. Bugungi kunda ushbu tizim Germaniya, Avstriya, Shveysariya va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta o'ringa ega.

Dualizm haqida to'xtaladigan bo'lsak, **dualizm (lot. dualis — ikki yoqlama)** — biri-biri bilan birlashtirib bo'lmaydigan holatlar, tamoyillar, fikrlash tarzi, dunyoqarash, intilish va gnoseologik tamoyillar yonma-yon mavjudligini targ'ib qiluvchi ta'limot. Dualizm plyuralizm ko'rinishlaridan biri. Dualizm terminini nemis faylasufi X.Volf (1679—1754) kiritgan. Dualizm quyidagi juft tushunchalarni ifodalaydi: g'oyalar dunyosi va voqeiy dunyo. Dualizm falsafiy, diniy, antropologik, etik shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Qadimgi davrda diniy-etik dualizm Avestoda uchraydi. Dualizm

falsafada ikki mustaqil narsa — ruh va materiya mavjud deb bilishida ko‘rinadi. Bu ayniqsa R.Dekart va I.Kant qarashlarida ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, shuningdek yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida 2021/2022 o‘quv yilidan professional ta’lim tizimida dual ta’lim tashkil etiladi. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunning 17-moddasida dual ta’lim to‘g‘risida fikr yuritilib, “Dual ta’lim ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta’lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta’lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Dual ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi” deb ta’kidlangan.

Dual ta’lim – bu mutaxassislarni o‘quvchilarning ta’lim infratuzilmasini va o‘quv jarayonida ish beruvchiga jalb qilgan holda, o‘zaro ta’lim doirasidagi mutaxassislar tayyorlash uchun asosdir. Kasbiy munosabatlar tajribasi sifatida ikki tomonlama ta’limni tushunish, ishlash bo‘yicha ishlab chiqarish ko‘nikmalarini o‘tkazish, mavzu bo‘yicha o‘zaro munosabatlarning umumiy tamoyillari bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Dual ta’lim jarayonida o‘quvchi olgan nazariy bilimlarini bir vaqtning o‘zida korxona yoki tashkilotda amalda qo‘llab, mutaxassislik bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini mustahkamlaydi. Bunda talabalarda haqiqiy, ma’lum bir ishlab chiqarish jarayonini tushunishga qaratilgan nazariy bilim va tushunchalarni tarqalish qobiliyatini rivojlantiradi. Ilm jarayonida amaliy faoliyatni aniqlashning prinsipi bilimlarning asosiy maqsadiga asoslanadi. Dual ta’lim jarayoni bilim olish kuchi bo‘lgan amaliy faoliyat bilan bilimlarining xolisligini oqlaydi, haqiqatini tekshirish vositasi hisoblanadi. Bu nazariya bilan amaliyot o‘rtasidagi dialektik munosabatlarda o‘z aksini topadi.

Dual ta’lim ma’lum bir korxona ehtiyojlariga muvofiq ma’lum bir darajadagi mutaxassislarni tayyorlashda o‘quv va ishlab chiqarish sohalarining kelishilgan o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga olgan kasbiy tayyorgarlikni tashkil etishning innovatsion shakli tushuniladi. Bizning Shayxontohur tuman kasb-hunar maktabimizda Dual yo‘nalishida o‘qiydigan tikuvchi qizlarimiz o‘zlarining egallagan bilim va ko‘nikmalari orqali bugungi kunda amaliyotlarini davom ettirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jonmatova O. Yusuf Xos Hojibning ta’lim – tarbiya to‘g‘risida. T.: —O‘qituvchi, 1980.
2. Niyozev G, Axmedova.M Pedagogika tarixidan seminar. —Noshir, Toshkent, 2011.
3. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi. – T.: — Fan va texnologiya, 2015.
4. Mullaboyeva N. Kasbiy pedagogika. Namangan, 2019.

